

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Bosh muharrir o'rinbosarlari

Mas'ul kotib

Marg'uba Abdullayeva

Qozoqboy Yo'ldoshev

Roza Niyozmetova

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Sahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Homidjon Homidiy, Shohida Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Nusratillo Jumaxo'ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo'rayeva, Shahnoza Rahmonova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Husnigul Jurayeva, Sohiba Umarova, Shohrux Abduraimov, Munira Shodmonova, Mahfuza To'ychiyeva, Matluba Jabborova, Abdug'ofir Rahmonov, Iroda Ishonxanova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma'lumot

“Metodika” seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. “Metodika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O'zbekiston: til va madaniyat. “Metodika” seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

Evristik yondashuvning ustivor jihatlar

Maxmuda Yuldasheva¹¹

Annotatsiya

Biz ta'lim jarayonida tashkil etayotgan adabiyot darslarining ilk maqsadi va vazifasi ta'lim oluvchilarga eng zaruriy va xolis fikrlarni bayon etish, o'quvchilarni zulmatdan yorug'likka olib chiqish hamda ular qalbida ezgulik tuyg'ularini shakllantirish, rivojlantirishdan iborat.

Hozirgi jadal rivojlanish ketayotgan bir davrda ta'lim sifati va samadorligini oshirishning eng ma'qul va maqsadli yo'li bu – dars jarayonini tashkil etishda interfaol metod va usullarni to'g'ri tanlashga va kerakli vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olishga e'tibor qaratish. Barchamizga ma'lumki, interfaol ta'lim – o'quv jarayonida ishtirokchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim, shu bilan birga bunday mashg'ulotlar natijasida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi.

Ushbu maqolada adabiyot darslarini tashkil etishda evristik yondashuvning ustivor jihatlar, o'qitishning evristik usullari, adabiy asarlarni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish, ularda ijodiy faollikni shakllantirish jarayonlari tahlil etiladi va metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, ijodiy tafakkur, innovatsion usullar, innovatsion metodlar, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.*

Kirish

Mamlakatimizda milliy metodikani takomillashtirish hamda yangilash masalasi ta'lim jarayoni uchun hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Barcha yo'nalishlarda kuzatilayotgan islohotlar metodika, pedagogika sohalarida yangilanish yasash uchun poydevor bo'ldi. Endi metodikaning mohiyatan teranlashuvi va tarbiya jarayoniga daxldorlik kasb etishi har jihatdan muhim tushunchaga aylandi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflari uchun tuzilgan adabiyot darsligida berilgan badiiy asarlarni o'rgatishda ta'lim oluvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish ko'nikmasi va asar bilan tanishish jarayonida paydo bo'lgan ruhiyati hisobga olinadi. O'quvchi badiiy asarni o'rganish jarayonida asar qahramonlari holatlarini ich-ichidan his qila olmasa, ularda adabiyotga, badiiy asar mutolaasiga bo'lgan qiziqish o'z-o'zidan susayadi.

¹¹ Yuldasheva Maxmuda Alikulovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: mahmudauldaseva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1465-1819

Iqtibos uchun: Yuldasheva, M. 2023. "Evristik yondashuvning ustivor jihatlar". O'zbekiston: til va madaniyat.

Bu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy asarlarni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga, ularda ijodiy faollikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Hozirgi davrda o'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan evristik va muammoli ta'lim o'quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

O'ziga xos yondashuvlar mavzu doirasida tez, aniq va qulay o'zlashtirish asosi bo'lgan usul va metodlar orqali namoyon bo'ladi. "Maktab amaliyotida usul, ko'pincha, metod bilan bir narsa yoki metodning bir qismi deb qaraladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta'limning muammoli metodi muammoli vaziyat yaratish, o'quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta'limning mantiqiy metodlarida ham o'rganilayotgan o'quv materialidan muhimni ajratish, o'rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash singari usullardan foydalaniladi [Husanboyeva, Niyozmetova, 2020: 111.]".

Asosiy qism

Bugungi kunda loyiha sifatida tavsiya etilgan umumiy o'rta ta'limning adabiyotdan "Milliy o'quv dasturi" mazmuniga ahamiyat qaratilsa, mohiyati jihatidan integrativ yondashuvga asoslanish, adiblar haqidagi ma'lumotlar, mualliflarning asar haqida tahlillaridan voz kechish, savol-topshiriqlarni hayotiy muammolar bilan bog'liqlikda tuzish, o'quvchilarga asar syujeti asosida mantiqiy savollar tuzish masalasi ustuvorligi ayonlashadi. Bu jihatlar o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi sohasida u qadar yangilik bo'lmasa ham darsliklarda o'z aksini to'liq topmaganligi bilan dolzarb sanalmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunda "Milliy dastur"da ko'zda tutilgan yondashuvlar orqali o'quvchilarda muammoni tadqiq etish, o'zlari uchun nimanidir kashf etish borasidagi qarashlar metodist olimlar Q.Yo'ldoshev [Yo'ldoshev. 2006: 73], Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar [Husanboyeva, Niyozmetova. 2020: 352] tomonidan o'qituvchilar uchun yozilgan metodik qo'llanma va monografiyalarda o'z aksini topganligi bilan an'anaviy xarakter kasb etadi.

Mazkur loyihada o'quvchilarning ijodiy ishlarini baholashda ko'chirmakashlikka yo'l qo'yilmasligi uchun baholashda plagiatga tekshirilishi belgilangani ham vazifani mustaqil bajarish, o'z ustida ishlash va muayyan vaqt mobaynida berilgan mavzu bo'yicha alohida shug'ullanishni talab etishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Umumta'lim maktablarida qo'llanayotgan darslik va qo'llanmalar mana bir necha yillarki takomillashtirib kelinmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad

– mukammalroq o‘quv dasturlari va manbalarga ega bo‘lish hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ma’lumki, 8-9-sinf adabiyot darsligi qismida o‘quvchilar turli mavzulardagi kengroq qamrovni o‘z ichiga olgan adabiy asarlar bilan tanishib borishadi. Albatta, bir narsa har doim yodimizda turishi lozimki, adabiyot darsliklari tarkibiga kiritilayotgan adabiy asarlar bola yoshi hamda psixologiyasiga mos ravishda bo‘lmog‘i zarur. Aks holda, bolalarda fandan zerikish paydo bo‘lishiga hamda fanning yo‘nalish kesimlaridagi kasblarga qiziqish so‘nishiga olib kelish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Adabiyot fani bola qalbini ochib beruvchi va dunyoqarashlarini kengaytiruvchi fan sifatida yuksak o‘rinda turadi.

Odatda har bir darslik va qo‘llanmalarda mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash uchun savol va topshiriqlar beriladi. Ular o‘tilgan mavzuni mustahkamlashga, o‘quvchilar xotirasida saqlanishi uchun xizmat qiladi, albatta. Mana shu jihat uchun tanlab olinadigan mashq va topshiriqlar o‘quvchining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi tabiiy.

Hozirda ijod maktablarining 8-9-sinflarida amalda bo‘lgan adabiyot darsligidan o‘rin olgan ayrim mavzularning mustahkamlash va takrorlash uchun berilgan topshiriqlaridan namunalar ko‘rib chiqamiz:

8-sinf “Adabiyot” darsliklaridagi o‘quv topshiriqlari mazmuni

8-sinf	
Mavzular	1-qism [8-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/ J.Nurmuhammadov va boshqalar. 2022: 204]
“Ravshan” dostoni	Mayna adashmasdan Ravshanning onasini topganligiga e’tibor bering. Chopar vazifasida foydalanilgan yana qanday qushlarni bilasiz? Ularni bunga qanday o‘rgatilishi haqida manbalardan ma’lumot qidiring.
Antuan de Sent-Ekzyuperi. “Kichkina shahzoda” qissasi	O‘zingizning rasm chizish qobiliyatingizni tekshiring. Chizganlaringizni sinfdoshlaringizga “o‘qish”ga bering. Fikrlashing.
G‘afur G‘ulom. “Sog‘inish” she’ri	Sog‘inish tuyg‘usi insonning shaxsiy ishi, lekin ushbu she’rda bu tuyg‘u ijtimoiy ahamiyat ham kasb etgan. Siz she’rda sog‘inchning tutgan ijtimoiy o‘rni haqida mulohaza bildiring.
Chingiz Aytmatov. “Oq kema” qissasi	1. Muallif bolaga ism bermaganining sabablarini o‘ylab ko‘ring. Sizda bolaga ism berish imkoniyati bo‘lganda qanday atardingiz? Nima uchun? 2. Siz o‘qigan qissada bolaning ikki ertagi ham o‘z nihoyasiga yetdi. Nima deb o‘ylaysiz, u o‘z orzulariga yeta oldimikan? Qissa xotimasini o‘zingiz istagandek yakunlab hikoya yozing.

Aleksandr Grin. “Alvon yelkanlar” qissasi	1. Assol va Greyning ruhiyatidagi, xarakteridagi umumiylikni nimalarda koʻrdingiz? Matnga va shaxsiy kuzatuvlaringizga tayanib javob bering. 2. Bolakay (“Oq kema”) va qizaloq (“Alvon yelkanlar”) ning oʻy-xayollarini solishtiring. Ikki obrazning bir-biri bilan mushtarak jihatlarni ayting hamda ularning taqdiridagi tafovutlarni aniqlang. 3. “Alvon yelkanlar” va “Oq kema” asarlaridan va hayotiy koʻnikmalarigizdan kelib chiqib “Orzu va umid kemasi” nomli ijodiy ish (rasm yoki matn) tayyorlang. Bunda Siz nimalarga koʻproq eʼtibor berganingizni dars jarayonida asoslashga harakat qiling.
Lutfiy. “Agar sen boʻlmasang...” gʻazali	1. Gʻazalda oshiqning maʼshuqaga bergan taʼriflarini aniqlang. Ushbu taʼriflar Sizga gʻayrioddiy tuyulmadimi, yaʼni ularni aqlga sigʻdirish mumkinmi yoki yoʻq? Mulohazalaringizni dalillang. 2. Gʻazalda oʻzingizga yoqqan, har gal oʻqiganingizda zavq oladigan bayt bormi? Javobingizni asoslang.
Xayriddin Sultonov. “Saodat sohili” qissasi	1. Asarga Baxshiturk devona obrazi nega kiritilganini va buni shu paytgacha oʻzingiz oʻqib, biron darvesh, devona yoki telba obrazi bor asar bilan qiyoslang. Xalqimizning dono kishilari tomonidan “Yuzta donishmand aytolmagan gapni bitta telba aytadi” deyilishida qanday maʼno borligini oʻrganing. 2. Shayx Saʼdiyning bir baytini Bobur buloq boʻyidagi xarsangga oʻydirib yozdiradi. Keyinchalik rus shoiri A.S.Pushkin ham aynan shu misralarni “Bogʻchasaroy fontani” asariga epigraf qilib oladi. Saʼdiyning bunchalik mashhur boʻlgan baytida qanday gʻoya ilgari surilgan boʻlishi mumkin. Fikringizni baytga tayanib bildiring. 3. <i>Qissani toʻliq oʻqib chiqqach, “Vatan boʻlmas Vatandan tashqarida” (Oʻzbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid tashbehi) mavzusida esse yozing. Esseda shaxsiy fikrlaringizni qissa matniga tayanib, asoslab bering.</i>
Alisher Navoiy. “Kimki bir koʻngli buzugʻning...” gʻazali	1. Gʻazaldagi qaysi baytni Siz oʻz hayot yoʻlingizda shior qilib olgan boʻlar edingiz? Javobingizni izohlang. 2. Maqtaʼda shoirning “<i>agar yana Astrobod sari borishga istak bildirsam, toʻqaydagi devlar qoʻlidan oʻlim topay</i>” degan qarorga kelishining tarixiy sabablarini izlang. Baytning gʻazaldagi ahamiyatini tushuntirishga urining.
Alfons Dode. “Soʻnggi saboq” hikoyasi	Rasul Hamzatovning “Ona tilim”, Muhammad Yusufning “Kechir meni, ona tilim!” sheʼrlarini topib, ularni sinchiklab oʻqing va mazmuniga diqqat qiling. Hikoya va sheʼrlarni oʻzbek tilining tarixiy kechmishi bilan bogʻlab tahlil qiling.

2-qism [8-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/ J.Nurmuhammadov va boshqalar. 2022: 248]	
Abdurauf Fitrat. “Yurt qayg’usi” she’ri	Aziz o’quvchi, Siz ham “Yurt qayg’usi” turkumiga xos usulda, ya’ni sochma – mansuralar usulida biror bir ijodiy ish tayyorlang. Yozganlaringizni sinfdoshlaringizga o’qib berib, ularga baholating.
Xurshid Do’stmuhammad. “Mirkomilboyning qazo bo’lgan namozi” hikoyasi	1. Hikoyada tilga olingan “Mardikorlar ishi” (1916-yil) haqida ma’lumot to’plang. Voqealar rivojini tahlil qilib, Mirkomilboyning Andijon yigitlarini mardikorlikka yubormaslik uchun qilgan harakatlarini tarixiy ma’lumotlar asosida baholang. 2. Tarix ustozingiz yordamida yoki tarixiy ma’lumotlardan hikoyada ismi qayd etilgan Anvar posho, uning siyosiy harakatlari haqida ma’lumot oling hamda nega yozuvchi aynan ushbu turk amaldori bilan Mirkomilboyini muqoyasa qilganini izohlashga harakat qiling.
Maqsud Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi	Tarix kitoblaridan Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon o’rtasidagi jang tafsilotlarini o’rganib chiqing. Tarixiy fakt va badiiy asar talqinlarini qiyoslang.
O.Henri. “Yigirma yildan so’ng” hikoyasi	Jim bilan Bobni qayta uchrashtirish senariysini tuzing. Bunda syujetga qanday o’zgartirish va qo’shimchalar kiritgan bo’lardingiz?
Shukur Xolmirzayev. “Ot egasi” hikoyasi	Hayvonlar haqida o’qigan asarlaringizni yodga oling. Ulardagi jonivorlar bilan hikoyadagi Qorabayir obrazini taqqoslang. Otlarning insonlarga yaqinligi sabablarini aniqlashga harakat qiling.
Robindranath Thakur. “Shubxa” hikoyasi	Siz ushbu hikoya voqea va hodisalarini asos qilib olgan holda Shubxashinining keyingi hayoti nima bo’lgani haqida kichik hikoya tuzing va uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
Isajon Sulton. “Shamolli kecha” hikoyasi	Xayolingizda aka-singil kelayotgan joylarni jonlantirib, yo’l xaritasini tuzing. Ijodiy-mantiqiy fikrlab, hikoyaning davomini yozishga urinib ko’ring.
Sadriddin Ayniy. “Sudxo’rning o’limi” qissasi	Qissaning qaysi o’rinlarida “ilm, ma’rifat” , qaysi o’rinlarida “tarix” va qaysi joylarida “hayot va haqiqat” badiiy ifodasini topgan? Matn asosida fikringizni dalillang.

9-sinf “Adabiyot” darsliklaridagi o’quv topshiriqlari mazmuni

9-sinf	
Mavzular	1-qism [9-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/ J.Nurmuhammadov va boshqalar. 2022: 224]
Jek London. “Hayotga muhabbat” hikoyasi	“Hayotga muhabbat” hikoyasining original nashrida quyidagicha epigraf keltirib o’tilgan: “This out of all will remain – They have lived and have tossed:

	So much of the game will be gain, Though the gold of the dice has been lost". Ammo hikoyaning o'zbekcha tarjimasida ushbu epigraf tushirib qoldirilgan. Siz shu iqtibosni o'zbek tiliga tarjima qiling va hikoyani o'qib bo'lgach, uning mazmuniga qanchalik aloqadorligini tekshiring.
Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani	Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasida Jaloliddinning ukasi shahzoda O'zloqshohning toj-u taxtga ruju qo'yishida buvisi Turkon xotunning ta'siri katta edi. "Ulug'bek xazinasi" romanida Ulug'bek Abdullatifning kaltabin bo'lishida buvisi Gavharshodni aybdor qiladi. Bu ikki tarixiy asardagi buvilar obrazini qiyoslang. Manbalardan Xorazmshoh va temuriylar saltanatida buvilar shahzodalar tarbiyasiga mas'ul shaxs sifatida belgilanishi sabablarini o'rganib chiqing va fikrlaringizni sinfda himoya qiling.
Ahmad A'zam. "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasi	1. Hikoyada yozuvchi va bosh qahramonning voqealarga munosabati, kinoyasi alohida-alohida tasvirlangan. Siz ularning qanday aks ettirilganini va bir-biri bilan mushtarak tomonlarini tadqiq qiling hamda tadqiqotingiz natijasi bilan o'rtoqlashing. 2. Hikoya qahramonlaridan intervyu olish Sizga yuklatilsa, qanday savollar berar edingiz?
Valentin Rasputin. "Fransuz tili saboqlari" hikoyasi	Hikoyaning ilk jumlasini "Qiziq, nima uchun ota-onamiz oldidagidek o'qituvchilarimiz oldida ham o'zimizni doim aybdor his etamiz?" savoli bilan boshlangan. Siz shu savolga qanday javob bergan bo'lar edingiz?
2-qism [9-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. 2022: 224]	
Zahiriddin Muhammad Bobur. G'azallar	O'zbekiston xalq rassomi Akmal Nurning "Armon" suratini yuqorida o'rgangan g'azal mazmini bilan bog'lab talqin qilib ko'ring. Shuningdek, suratdagi: – ranglarning tanlanishiga; – detallarning ifodalanishiga; – obrazlilikka e'tibor qiling va sharhlab bering. Surat nega "Armon" deb nomlangani haqida mulohaza yuriting.
Shukrullo. "Kafansiz ko'milganlar" xotira-roman	O'z hayotingizdan biror lavhani xotira-esse shaklida yozib ko'ring. Undagi voqealar kamida 2-3 yil oldin sodir bo'lgan bo'lishi kerak. Yozib bo'lgach, tasvirlarni qayta ishlang. Yozish va qayta ishlash jarayonidagi taassurotlaringizni darsda sinfdoshlaringiz bilan bo'lishing.
Halima Xudoyberdiyeva. "Yo'ldadirman" she'ri	Lirik qahramon nomidan she'rda ta'kidlangan xatni Siz yozishga urinib ko'ring. Xatda aynan nimalarni ifodalagan bo'lar edingiz? Sinfdoshlaringizga o'qib bering



Tohir Malik. "Alvido, bolalik" qissasi	Asarda Qamariddin Asrorga sudga kelib, gaplarini tinglashini aytadi. Qissa esa bungacha yetib bormaydi. Aziz o'quvchi! Asarni to'liq o'qib chiqqaningizdan foydalanib, Qamariddinning tilidan sud nutqini yozing. U, sizningcha, sudda nimalar degan bo'lar edi?
--	--

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, ushbu topshiriqlarda mantiqiylikka tayanish bilan birga fanlararo integratsiya ham kuzatiladi. Bu topshiriqlar o'quvchilarni kreativ, ijodiy fikrlashga undash bilan birga ularni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga undaydi.

Albatta, bir narsa har doim yodimizda turishi lozimki, adabiyot darsliklari tarkibiga kiritilayotgan adabiy asarlar bola yoshi hamda psixologiyasiga mos ravishda bo'lmog'i zarur. Aks holda, bolalarda fandan zerikish paydo bo'lishiga hamda fanning yo'nalish kesimlaridagi kasblarga qiziqish so'nishiga olib kelish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Adabiyot fani bola qalbini ochib beruvchi va dunyoqarashlarini kengaytiruvchi fan sifatida yuksak o'rinda turadi.

Odatda har bir darslik va qo'llanmalarda mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash uchun savol va topshiriqlar beriladi. Ular o'tilgan mavzuni mustahkamlashga, o'quvchilar xotirasida saqlanishi uchun xizmat qiladi, albatta. Mana shu jihat uchun tanlab olinadigan mashq va topshiriqlar o'quvchining intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi tabiiy.

Izlanishlarimiz va amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni evristik faoliyatga undovchi metodlar, topshiriqlar va mashqlardan bugungi kunda ta'lim amaliyotida yetarlicha foydalanilmayapti.

Adabiyot fanini o'qitishda, o'tilgan badiiy asarlarni mustahkamlashda metodik talablardan biri dars jarayonida turli xil o'yinlardan ham samarali foydalanish mumkin, sababi didaktik o'yinlar ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bu jarayonda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglashi asosida emotsional – hissiy hamda intellektual-axloqiy jihatdan rivojlanadi.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.V.Klarinning ta'biri bilan aytganda, o'qituvchi ta'lim jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, mazkur jarayon o'quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini shakllantirish imkoniyatini yaratishi lozim [Кларин. 2006: 198].

Evristik izlanishga asoslangan o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar o'tilgan asar bo'yicha illyustratsiya yaratadilar, asar qahramonlari yoki tabiat tasvirini o'z tasavvurlari orqali tasvirlab beradilar, kichik loyihalar ustida ishlaydilar, muloqot matnlarini yaratadilar, kichik hikoyalar yozish orqali evristik faoliyat turlari bilan shug'ullanishga muvaffaq bo'ladilar. Natijada o'quvchilarda yaratuvchanlik malakasi rivojlanib, o'z faoliyati mahsulidan qoniqish hissi paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchilarda o'zligini namoyon etish imkoniyatini vujudga keltirib, shaxsiy sifatlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, adabiyot darslarida evristik metoddan foydalanish topshiriqlarni tabiiy tarzda mustaqil bajarish, betakror yechimlarni ilgari surish imkoni-

ni beradi. Shu bilan bir qatorda ishonchli ma'lumotlarni izlash, ularni qayta ishlash va foydalanishga ko'maklashadi.

Adabiy ta'lim berish jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati shundaki, u o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatadi. Demak, evristik metod asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni ya'ni mustaqillik, epchillik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ikkilanmasdan shuni aytish mumkin-ki, evristik o'qitish jarayonida fan o'qituvchisi ham, muayyan fan doirasi-dagi darslik ham o'quvchining bilim olishiga ko'maklashuvchi qo'shimcha vosita hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim oluvchi mustaqil ravishda o'z mashg'ulotlari rejasini tuzadi hamda o'z faoliyatiga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazarini belgilaydi, olam va insoniyatni anglashga intiladi, adabiyotga oid tadqiqot (muallif ijodiga oid, asar qahramonlari tarixiga oid, voqealar bo'lib o'tgan zamon va makonga oid, tarixiy faktlarga oid...)lar o'tkazadi, she'r, hikoya va esselar yozadi. Natijada ushbu o'quv jarayonida o'quvchilar shaxsiy bilimlari va tajribalarini boyitib boradilar. Va, eng asosiysi, o'quvchilar o'qituvchilar taqdim etgan bilim, ma'lumotlar, fanga oid yangiliklar bilan cheklanib qolmaydilar, o'zlari mustaqil izlanadilar.

Xulosa

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterverg o'zining "Nemis o'qituvchilarining ta'limi bo'yicha qo'llanma"sida o'qituvchilar uchun muhim maslahatlar va ko'rsatmalarni berish barobarida quyidagi fikrni bildirib o'tgan edi: "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".

Oradan III asr vaqt o'tgan bo'lsa-da, mohir pedagog Adolf Distervergning yuqoridagi fikrlari o'z ahamiyatligini hamon yo'qotgani yo'q. Haqiqatdan ham, o'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari, faniga oid yangiliklar bilan muntazam tanishib borishlari va dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishga xizmat qiladigan turli usullarni kashf etishi hamda amaliyotga tatbiq etishi lozim.

Jahon adabiyotshunosligida Evristik metod, evristik yondashuv, evristik faoliyatga oid juda ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Evristik usullarni qo'llash muammolari va ta'lim va tarbiya usullari faylasuflar, psixologlar va ilmiy tadqiqotchilarning asarlarida ishlab chiqilgan. Jumladan, Sokrat, Arximed, G.E.Armstrong, G.S.Altshuller, A.Binet, B.Bolzano, D.Bul, R.Dekart, K.Dunker, N.A.Izvol'skiy, A.I.Ilyasov, Konfutsiy, G.Leybnits, A.N.Leontyev, R.Lindseyn, D.Norman, Aleksandriya Pappi, D.Poyi, Y.A.Ponomarev, A.Puankare, V.N.Pushkin, S.L.Rubinshteyn, V.N.Sokolov, O.K.Tixomirov, E.Torndayk, A.V.Xutorskiy, S.I.Shohor-Trotskiy, D.X.Fleyvel, P.K.Engelmeyerlarning asarlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Evristik usullarni dars jarayonida maqsadli qo'llash orqali fan o'qituvchisi quyidagi samaradorliklarga erishadi:

- keng ko'lamdagi yoki murakkab tushunchalarni, shuningdek, g'oyalarni kochikroq va sodda qismlarga ajratish orqali ma'lumotni oson tasavvur qilish yoli taqdim etishga yordam beradi;

- o'quvchilarga dars jarayonida faol ishtirok etish va mavzuni mukammal tushunish imkoniyatini yaratadi;

- aqliy hujum, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tarkibni tasniflash va birinchi o'ringa qo'yish, mulohaza yuritish kabi bilim qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;

- mavzuga oid avvalgi bilimlarni eslab qolishga va uni tezda yangi ma'lumotlar bilan boyitish hamda bilimlar zanjirini davom ettirishga ko'maklashadi;

- o'z ustida ishlash, ijodkorlik, tashabbuskorlik kabi tuyg'ularni shakllantirish imkoniyatini oshiradi.

Shunday qilib, evristik ta'lim o'quvchining uchta integratsion qobiliyati ya'ni ijodiy qobiliyati, bilishga doir hamda faoliyatga oid qobiliyatiga tayanadi. Demak, evristik ta'lim deyilganda o'quvchining ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi imkoniyatlar majmuasi tushuniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Adabiyotlar

- Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020.
- Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablariida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent. 2006. Avtoreferat.
- Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma: "Innovatsiya-Ziyo": nashriyoti, 2020-yil.
- 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .
- 8-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar – Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .
- 9-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Colorpack", 2022 .
- Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. – Москва: Садовое кольцо, 2006.

Plus aspects of the heuristic approach

Makhmuda Yuldasheva ¹²

Abstract

The first task of the literature lessons that we organize in the educational process is to state the most necessary and unbiased thoughts, to bring students from darkness to light, and to form and develop feelings of goodness in their hearts. The most desirable and purposeful way to improve the quality and effectiveness of education in a period when the current rapid development is underway is to focus on the correct choice of interactive methods and methods in organizing the course process.

As we all know, interactive education is an education based on interaction of participants in the process of learning to master knowledge, skills and abilities, and at the same time, as a result of such training, the process of forming and developing the creative abilities of those who receive education rises to a new level.

This article analyzes the master aspects of the heuristic approach to the organization of literature lessons, heuristic methods of teaching, the development of creative activities of students in teaching literary works, the processes of formation of creative activity in them, and gives methodological recommendations.

Keywords: *creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, modern pedagogy, innovative methods, creative activity, heuristic education, creative assignment.*

References

Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. 2020.

Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. – Toshkent. 2006. Avtoreferat.

Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma: "Innovatsiya-Ziyo": nashriyoti, 2020-yil.

8-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .

8-sinf adabiyot darsligi (II qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar – Toshkent: "Adast poligraf", 2022 .

9-sinf adabiyot darsligi (I qism) darslik/J.Nurmuhammadov va boshqalar. – Toshkent: "Colorpack", 2022 .

Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. 7-е изд. – Москва: Садовое кольцо, 2006.

¹² Yuldasheva Makhmuda Alikulovna – a doctoral student at Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi

Email: mahmudauldaseva@gmail.com

ARCID ID: 0009-0002-1465-1819

For citation: Yuldasheva, M. 2023. "The superstitious aspects of the heuristic approach". Uzbekistan: language and culture.